



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI K E N G A S H I

Samarqand t. 140300, Gulobod qo'rg'oni, 1-uy. Tel: (66) 612-51-89

2022 - yil 7 - oktabr

VI-68-175-7-103-K/22

Samarqand tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-5072-sonli hamda 2022-yil 20-sentabrdagi “Tuman (shahar) budgetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi KQ-406-IV-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining oltinchi chaqiriq oltmish sakkizinchi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Tuman hokimligi moliya bo‘limining Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risidagi 2022-yil 26-sentabrdagi 01/02-38/399/1-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Ochiq budget” axborot portali orqali “Tashabbusli budget” jarayonida fuqarolar tomonidan o‘z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha qoldirilgan takliflarning 3-bosqich, ya’ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar ro‘yxati hamda undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha manzilli ro‘yxati ilovaga

muvofoiq tasdiqlansin.

3. Samarqand tumani hokimligi moliya bo‘limi (v.v.b. F.Misirov), tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (I.Elboyev) ajratilgan mablag‘lardan amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofoiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (B.Xonkeldiyev), tuman “Gulobod tongi” gazetasi (N.Karimov) tuman hokimligi moliya bo‘limi (v.v.b.F.Misirov) bilan birgalikda “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar, shuningdek, undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Xusanov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Ganiyev) zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi



A.Umarov

Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining
2022 yil 7 oktabrdagi
VI-68-175-7-103-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Tuman bo'yicha 2022-yil 2-mavsum jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha
"MANZILLI RO'YXAT"**

mln.so'm

№	G'olib takliflar ma'lumoti					Amalga oshirishning dastlabki qiymati	Haqiqatda ajratilgan*	Moliyalashtirish manbasi	Buyurtmachi tashkilot	Loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan hujjatlar	Xarid qilish tartib-tamoili turi
	Taklif ID raqami	Manzili	Balansda saqlovchi	Qisqacha mazmuni	To'plangan ovozlar soni						
	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da shakllangan mablag'						6 305,0	x	x		x

1	1040600140	Samarqand tumani Xo'ja Axrori Vali MFY	Samarqand tumani Tibbiyot birlashmasi	Samarqand tumani Xo'ja Axrori Vali MFY da joylashgan Ko'p tarmoqli markaziy poliklinika hozirgi paytda ta'mirlab holatiga kelib qolganligi sababli ushbu poliklinikani joriy ta'mirlash uchun	7460	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand tumani Tibbiyot birlashmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
2	1040600117	Samarqand tumani Xo'ja Axrori Vali MFY	Samarqand tumani Tibbiyot birlashmasi	Samarqand tumani TTBga qarashli "Tug'ruq majmuasi"ni joriy ta'mirlash uchun.	6168	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand tumani Tibbiyot birlashmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
3	1040600098	Samarqand tumani Quyichordara MFY	Samarqand tumani Xalq ta'limi bo'limi	Samarqand tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 2-IDUMni joriy ta'mirlash va moddiy texnik bazasini rivojlantirish uchun	6163	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand tumani Xalq ta'limi bo'limi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash

4	1040600109	Samarqand tumani Xo'ja Axrori Vali MFY	Samarqand tumani Xalq ta'limi bo'limi	Samarqand tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 10-IDUMga mini stadion barpo etish uchun	3293	280,0	280,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand tumani Xalq ta'limi bo'limi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
5	1040600116	Samarqand tumani Xo'ja Axrori Vali MFY	Samarqand tumani Tibbiyot birlashmasi	Samarqand tumani Tibbiyot birlashmasiga qarashli "Bolalar bo'limi"ni joriy ta'mirlash. (ichki va tashqi fasadini, zinapoyalar ta'mirtalab, hovlisida bolalar maydonchasi hamda o'tirish uchun o'rindiqlar 6 ta o'rnatish) uchun.	3212	900,0	900,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand tumani Tibbiyot birlashmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash

6	1040600142	Samarqand tumani Oqmachit MFY	Samarqand tumani Tibbiyot birlashmasi	Samarqand tumani Oqmachit MFY hududida joylashgan 32-son Oilaviy poliklinika binosi ta'mirlab holatda bo'lganligi sababli joriy tamirlash uchun	3190	800,0	800,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand tumani Tibbiyot birlashmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
Taqsimlanmagan mablag'							725,0				